

Kitobxonlik zavqi



Elektron kutubxonalar axborotni saqlash, tarqatish va undan foydalanishning yangi, samarali vositasiga aylanib ulgurd. Unda turli fanlar, tillar va sohalar bo'yicha millionlab manbalar mavjud. Bundan tashqari, qog'oz sarfi kamaygani uchun atrof-muhitni muhofaza qilishga ham hissa qo'shadi.

Sharof Rashidov tumani axborot-kutubxona markazi tumandagi "Yangiobod" MFYda aholi gavjum yerda joylashgan. Shu sababdan bu maskanga yoshlarga emas, xotinqizlar, bobo hamda buvijonlar ham mutolaa uchun tez-tez tashrif buyurishadi.

Markaz turli yo'nalishdagi ko'plab adabiyotlar bilan to'ldirilib, ayni kunda fond 24 520 nusxaga yetdi. Bundan tashqari, bazada shakllangan elektron kitoblarni istalgancha olib o'qish imkoniyati bor. Buning uchun 10 ta zamonaviy kompyuter jamianmasi foydalanuvchilar ixtiyorida.

Kutubxonada raqamli axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish maqsadida turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Xususan, elektron manbalardan foydalanish tartibi, imkoniyatlari va afzalliklari haqida xodimlar tomonidan aholiga tushunchalar berildi. "Elektron portallardan qanday foydalaniladi?", "Ilmiy maqolalar bazasiga kirish" kabi mavzularda seminarlar o'tildi. Shu bilan birga interaktiv darslar o'tkazilib, saytlarga kirish, qidiruv kitob yuklash va saqlash bo'yicha yo'riqnoma tushuntirildi.

Mohira MAMATQULOVA,

Sharof Rashidov tumani axborot-kutubxona markazi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish" xizmati rahbari.